

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.
Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Sh.Hakimova O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar	118
I.Bohodirov, B.Jurayev Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari	140
N.Komilov Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya	158
S.Isroilova, G.Karimova Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
E.Qurbonova Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev So'z yasalanishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'ldosheva Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Попубай Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

YURT TARIXI VA EL TAQDIRI TALQINLARI

ИСТОРИЯ СТРАНЫ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ СУДЬБЫ НАРОДА

HISTORY OF THE COUNTRY AND INTERPRETATION OF THE FATE OF THE PEOPLE

Sidikova Nargiza Badirovna¹¹Sidikova Nargiza Badirovna

– FarDU Tabiiy yoʻnalishlar boʻyicha chet tillari kafedrasini oʻqituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada shoir Xurshid Davronning XX asr 70-80-yillar lirikasida yurt ozodligi va inson erki haqidagi orzularning lirik ifodalanishi haqida soʻz yuritiladi. Vatan oʻtmishi, xalqimizning ulugʻ tarixi va uning xalqning porloq kelajagi, ijtimoiy-maʼnaviy hayotdagi qarama-qarshiliklar, ozodlik yoʻlida qurbon boʻlgan xalq qahramonlari, Vatan fidoylari, shuningdek ogohlik va sergaklikka daʼvat etish, ijtimoiy voqea-hodisalarga befarq boʻlmaslik, buyuk ajdodlarimizga cheksiz hurmat va ehtirom bir necha sheʼriy misralarda oʻz aksini topgan. Shuning bilan birga maqolada kelajak avlod uchun gʻamxoʻrlik haqida yozilgan sheʼriy misralarni koʻrish mumkin.

Аннотация

В статье рассматривается лирическое выражение мечтаний поэта Хуршида Даврона о свободе страны и свободе человека в лирике 70-80-х годов XX века. Прошлое Родины, великая история нашего народа и его светлое будущее, противоречия в общественно-духовной жизни, герои народа, отдавшие свою жизнь за свободу, жертвы Родины, а также призыв к бдительности и бдительность, равнодушие к светским событиям, безграничное уважение и благоговение перед нашими великими предками нашли отражение в нескольких поэтических стихах. Также в статье можно увидеть поэтические стихи, написанные о заботе о подрастающем поколении.

Abstract

The article deals with the lyrical expression of the dreams of the poet Khurshid Davron about the freedom of the country and the freedom of man in the lyrics of the 70-80s of the twentieth century. The past of the Motherland, the great history of our people and its bright future, the contradictions in the social and spiritual life, the heroes of the people who gave their lives for freedom, the victims of the Motherland, as well as the call for vigilance and alert not to be, indifference to several social occasions indifference, indifference to light. great ancestors are reflected in several poetic verses. Moreover, in the article you can see poetic poems written about the for compassion of the next generation.

Kalit soʻzlar. Lirik ifoda, hayot voqeligi, tarix, ijtimoiy hayot, el taqdiri, yurt ozodligi, estetik taʼsir, falsafiy gʻoya.

Ключевые слова. Лирическое выражение, жизненная действительность, история, общественная жизнь, рутная судьба, свобода страны, эстетическое воздействие, философская мысль.

Keywords. Lyrical expression, life reality, history, social life, hand destiny, freedom of the country, aesthetic influence, philosophical idea.

KIRISH

Oʻzbek sheʼriyatida yurt taqdiri, xalqning ijtimoiy-siyosiy tarixi oʻz ifodasini topib kelmoqda. Xurshid Davron ham oʻzining qirq yildan koʻproq umrini samarali ijod bilan oʻtkazdi. U oʻzining sheʼr va dostonlari, dramatik va nasriy asarlari bilan tanilgan ijodkorlardan biridir. Xurshid Davron oʻz asarlari orqali oʻzi tugʻilib oʻsgan yurt sururi-yu, tarovatini, samimiyati, ruhiyati va oʻziga xosliklarini adabiyotimizga bir qadar olib kirishga muvaffaq boʻlgan ijodkor hisoblanadi.

Xurshid Davronning lirikasida tarixiy shaxslar obrazi D.Nusrotulloyeva tomonidan oʻrganilgan boʻlib, u shoir individual uslubining asosiy qirralariga toʻxtalib oʻtadi. Sh.Nizomova esa, Xurshid Davronning lirikasi vatanparvar inson qalbini parvarishida muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlagan.

Biz shuni alohida taʼkidlamoqchimizki, Xurshid Davron va unga tengdosh ijodkorlar katta umidlar bilan qalam ushlab, dil dardlarini qogʻozga tushirishga kirishgan 70-yillarda adabiy jarayonda birmuncha oʻzgarishlar yuz bermoqda edi. Shu yillarda qoʻp ijodkorlar oʻta ehtiyotkorlik bilan yozishga majbur boʻlganlaridan koʻz yumish mumkin emas. Ammo shunisi ham muhimki, bu ijodkorlarning deyarli hammasi mehnatkash xalqqa, Vatanga, Ona zaminga muhabbatni ulugʻlashda, ishq-muhabbatni, insoniy fazilatlarini, tabiat lavhalarini kuylashda yakdil edilar. Bunday

tuyg'ular ta'siriga ularda mavzu mushtarakligi bilan bir qatorda, o'ziga xos shoirona nigoh va she'riy mahorat qirralari, shirali, rangdor til, yorqin obrazlar yaqqol ko'rinib turadi. Bu tamoyillarni aynan Xurshid Davron ijodida ham kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada Xurshid Davronning "Bolalalikning ovozi" va "Qadrdan quyosh" nomli kitoblaridan maqola mavzusini yoritib beruvchi she'rlardan namunalar keltirilgan.

Maqolada Xurshid Davron lirikasidagi yurt tarixi, el taqdirini ochib beruvchi obrazlar talqini yoritib berish uchun tavsiflash, qiyoslash, ziddiyatga qo'yish assotsiativ tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Bugun XXI asrning uchinchi o'n yilligi boshlarida turib, adabiyotimiz bosib o'tgan yo'lga nazar tashlasak, XX asrning 70- yillari adabiyotda o'ziga xos burilish davri bo'lganini yaqqol sezamiz. Ayni shu yillarda she'riyat olamida turfa xil o'zgarishlar ro'y berdi, inson shaxsini, qalb kechinmalarini kuylash, sevgi dardi, hijron, hayot tashvishlari, turmush murakkabliklari haqida ham cho'chimasdan yozish tamoyillari ro'y bera boshladi. [1. 67]

Xurshid Davron ijodining dastlabki bosqichlaridayoq Vatan tarixi, xalq taqdiri, istiqloq hamda erk kuychisi sifatida ko'zga tashlandi. Shoirning, ayniqsa, Vatan haqidagi she'rlarini ilk davr poeziyasining tirgaklari desa bo'ladi. Jumladan, jonajon ona o'lkasi haqida shoir shunday deydi:

***Men ko'ksingga boshimni qo'ydim,
Sen chekkan g'am, hasratda kuydim.
Suydim sening Oqdaryongni ham,
Hamda Qoradaryongni suydim.
Ey qalbinning onasi, Vatan!***

She'riyatda Vatan mavzui - bu hayot qadar ko'hna va hayotdek navqiron; u doimo o'sish-ulg'ayishda. Bir qarasang uning chegaralari, tarixi o'rin almashadi; shunday o'rinlarda unda davr ruhining, ijtimoiy taraqqiyot- ning, xalq hayoti va taqdirining muhrini ko'rasan. Shunday kezlarda har bir davrda, shoirlar ushbu mavzuning o'zi ko'ra olgan ufqlarini, qirralarini ochadi, Vatan mavzui talqinida orttirilgan ulkan poetik tajribaga ma'lum darajada o'z ulushini qo'shadi, deya yana bir bor ishonch hosil qilasan. Xurshid Davron ham buyuk ajdodlarimizga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tiborini o'z she'rlariga olib kirdi va she'rlarining tub mohiyatiga ona Vatan, milliy iftixor, o'z tili va tarixiga bo'lgan muhabbati tuyg'ularini jo etdi. Shoir shonli tariximizning qahramonlik sahifalariga murojaat etganida, o'zida hayot va dunyo ishlariga shunday qizg'in munosabatni shakllantirish hamda ustuvor qilishni nazarda tutadi, shu bilan birga, Vatanni anglash va sevish tuyg'usini kuchaytiradi. Vatan fidoyilari bo'lgan, ozodlik yo'lida qurbon bo'lgan el qahramonlarini ulug'laydi. Masalan, 1983 yilda yozilgan "Samarqanddagi Ozodlik haykali qoshida o'ylar" nomli she'rida shunday misralar bor:

***Ozodlik!
Tilingda hayqiriq bo'lgan
Kim o'chirar qabrtoshlardan?!
Uyqusiz ko'zingga to'lgan
Terday achchiq va sho'r yoshlardan
Kim yuzin o'girar,
Kim kechadi voz,
Kim ularsiz bitar tarix varag'in?
Bobolar qoshingda tiz cho'kib o'lgan,
Ular faqat senga tiz bukkani, xolos!***

Xurshid Davron, shu tariqa, mustabid tuzum va hukmron mafkura qilichini yalang'ochlab turgan o'tgan asrning 80-yillaridayoq kitobxonni dunyoga, ijtimoiy voqea-hodisalarga hushyorroq qarashga, mushohada qilishga undaydigan ko'plab lirik she'rlar yaratgan.

Tarix mavzusi bilan yo'g'rilgan erk tarannumi shoir ijodida bosqichma-bosqich kuchayib borganligini kuzatib boramiz. Xurshid Davron lirik qahramoni zamondoshlarga murojaat qilar ekan, Vatan o'tmishi, xalqimizning ulug' tarixi bugungi avlodni nafaqat faxrlantirishi, balki ogohlik va sergaklikka da'vat etishi lozim. Mana, muxtasar shaklda sarhadsiz ma'nolarni qamragan yana bir she'r:

**Bobur qalamining uchida turgan,
Qayg'uga nom topgan bir tomchi siyoh.
Erk uchun janggohda Tarobiy to'kkan
Qonning tomchisidek erur bebaho.**
(“Botir qoni va daho so'zi”. 1988).

Lirika - fikr va his-tuyg'ular sintezining teranlashgan formasi, deyishadi. Bu hol uning yakka, yolg'iz mohiyatlardan teran falsafiy umumlashmalarga kelishida, bugungi voqeligimizdan kelajakka daxldor belgilarni ko'rishi va topa bilishida, ularni umumlashtira olishida namoyon bo'ladi. [2. 104] Shu ma'noda, aytish mumkinki, Xurshid Davron lirikasida Vatan daxlsizligi xalq irodasi bilan yonma- yon qo'yiladi:

**Angladim: tili bir,
Dini bir bo'lib
Dili bir bo'lmasa o'lar ekan xalq.
Bir-birin qul qilmoq uchun jang qilib
Oxiri yovga qul bo'lar ekan xalq...**
(“Tarix kitoblarin ko'p varaqladim”).

Shoirning lirik qahramoni o'z vatanining kelajagiga, istiqloq quyoshi bir kun kelib porlashiga ishonadi. G'araz niyatli dushmanlarning o'z niyatlariga yeta olmasliklariga ishora qiladi. Bunday insonlarni ona Vatan hech qachon kechirmaydi:

**Rafiq bo'lolmassan, diling sotarsan,
Nishon olmoq uchun eling sotarsan.
Rasul bo'lolmassan, g'ulom bo'larsan,
G'ayrating yo'q sening, qo'rqib o'larsan.** (1988).

Shoirning ilk she'riy to'plami 1979 yilda e'lon qilindi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida chop etilgan bu kitob «Qadrdon quyosh» deb nomlangandi. Xurshid Davron o'zining ilg'or safdoshlari bilan birgalikda, dastlabki ijod namunalari bilanoq she'riyatga yangi ruh olib kira oldi. Shoirning ijodi 70-80-yillardagi ko'pdan-ko'p ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi qarama-qarshiliklarni o'zida yorqin aks ettira oldi. Shoir o'sha yillardagi murakkabliklarni “Jangchi haqida rivoyat” she'rida ishoralar tarzida ko'rsatganligini payqashimiz mumkin:

**Yov lashkari qadim tepadan
O'qqa tutar ekan shaharni,
Jangchi qulab tushdi janggohda
Qonga bo'yab yashil o'tlarni.**

Mazkur misralarda shoir jangchi misolida o'ziga ishora qilayotgandek tuyuladi. U mavjud mustabid tuzumga qarshi kurashda yengilmoqda. Chunki u og'ir yarador. Shunda uning oldiga avval onasi, opasi, yori, keyin otasi kelib, uni hayotga qaytarish uchun urinadilar. Lekin lirik qahramon – jangchining o'g'lidan boshqaning so'zlari unga hayot bag'ishlay olmaydi. O'g'lining so'zlari jangchini oyoqqa turg'izadi va qayta jangga kirmoq uchun o'zida kuch topadi:

**Jangchi – ota ko'zini ochdi,
Yurak to'ldi yana nidoga.
U o'g'lini boshlab, qilichin
Baland tutib kirdi janggohga.**

Ushbu she'rda shoirning kelajak avlod haqida qayg'urayotgani, oldinda qaqshatqich zarbalar, tinimsiz kurashlar borligiga ishora qilayotganini sezish qiyin emas. Yuqoridagi misralarda Xurshid Davronning keyin yozgan ko'plab she'rlariga xos ohorlilik, yuksak badiiyat, samimiyatu ezgulik, kuchli pafos va lirik uslub jilolari mujassam.

MUNOZARA

Xurshid Davron lirikasida vatan va tarix mavzusidagi she'rlar ko'plab uchraydi. Bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, lirik qahramon tabiati bilan belgilanadi. Shoirning lirik qahramoni insoniyat va Yer kurrasining taqdiri, Vatanining buguni va kelajagi to'g'risida kuyib pishishi, qayg'urishi, behalovatligi va bezovtaligi bilan xarakterlanadi. Vatan va xalqning porloq kelajagini o'tmishi va buguni bilan uyg'unlikda talqin etuvchi obrazlar yaratadi. Bunday topib so'zlash, odamlarning tili uchida turgan gapni obrazli aytish, lirik qahramonning yuksak madaniyati, fursatdan oldinda yurish Xurshid Davronning o'tgan asr 70-80-yillarda yaratilgan she'rlarining muhim fazilatlaridan biridir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xurshid Davronning barcha she'rlarida yurt tarixini madh etuvchi, el taqdirini o'zining taqdiri deb bilguvchi, xalqining porloq kelajagi uchun xizmat qilishni o'zining burchi deb bilguvchi obrazlar tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Adabiyotshunoslik asoslari va mezonlari, – T.: 2004, B.N. Sarimsoqov.
2. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva, -T.: Fan -2006.
3. Soliyev A. Qahramon ruhiyati va dramatik vaziyat, -2008, 4-son.

Kitoblar

1. Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. –T.: 1986.
2. Xurshid Davron. Qadrdon quyosh. –T.: 1979.

Jurnallar

1. Nusratilloeva D. N. XURSHID DAVRON LIRIKASIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 6.
2. Islomova X. BADIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV (Mustaqillik davri o'zbek she'riyati misolida.) //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2021. – Т. 1. – №. 2.

(Taqrizchi: A.Sabirdinov – Filologiya fanlari doktori)